

O'zbekiston Prezidenti Rossiya sog'liqni saqlash vazirini qabul qildi



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 28-may kuni mamlakatimizda amaliy tashrif bilan bo'lib turgan Rossiya Federatsiyasi sog'liqni saqlash vaziri Mixail Murashko boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.

O'zbekiston bilan Rossiya o'rtasida sog'liqni saqlash sohasidagi amaliy hamkorlikni yanada kengaytirish masalalari ko'rib chiqildi.

Davlatimiz rahbari bugungi xavf-xatarlar ilg'or xalqaro tajriba asosida samarali sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish naqadar muhim ekanini yana bir bor ko'rsatganini alohida ta'kidladi. Pandemiyaga qarshi kurashishda ko'rsatilgan ko'mak, shu jumladan aholini emlashda amalga oshirilayotgan samarali hamkorlik uchun minnatdorlik bildirildi.

Ustuvor yo'nalishlarda, shu jumladan onkologiya, gematologiya, virusologiya, nefrologiya, transplantologiya, farmakologiya va boshqa sohalardagi qo'shma dastur va aniq loyihalarni amalga oshirish masalalari muhokama qilindi. "Elektron sog'liqni saqlash" tizimini joriy qilish va telemeditsinani keng rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi.

Yuqori malakali tibbiyot xodimlarini tayyorlash borasidagi yaqin sheriklikni davom ettirish, jumladan, Toshkent shahrida Rossiyaning yetakchi N.I.Pirogov nomidagi tibbiyot universiteti filialining faoliyatini tez fursatda tashkil etish, shuningdek, Rossiyaning yetakchi klinikalari negizida vrachlar almashish va ularning malakasini oshirish dasturlarini kengaytirish yuzasidan kelishuvga erishildi.

Sog'liqni saqlash vaziri Mixail Murashko mamlakatimizda aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish sifatini tubdan yaxshilash borasida amalga oshirilayotgan islohotlarni yuksak baholab, Rossiya o'zbekistonlik sheriklar bilan sog'liqni saqlash sohasidagi keng ko'lamlı tizimli hamkorlikni rivojlantirish hamda tibbiyotning turli

sohalarida zamonaviy bilimlar va ilg'or tajriba bilan bo'lishishga tayyor ekanini ta'kidladi.



Manba